



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli:<br>tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....                           | 14  |
| <b>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</b>                                                                           |     |
| O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....                                                                                 | 20  |
| <b>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi:<br>xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....                      | 25  |
| <b>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</b>                                                                                                       |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini<br>rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....          | 30  |
| <b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>                                                                                                        |     |
| Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati .....                                                | 33  |
| <b>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</b>                                                                                                        |     |
| Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....                                                      | 39  |
| <b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....                                                                       | 44  |
| <b>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</b>                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni<br>shakllantirishning o'ziga xos jihatlari..... | 48  |
| <b>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</b>                                                                                                        |     |
| Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners<br>in English Language Classes Through Digital Technologies .....    | 52  |
| <b>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</b>                                                                                                        |     |
| Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....                                                               | 55  |
| <b>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</b>                                                                                                            |     |
| "Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....                                                             | 59  |
| <b>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</b>                                                                                                      |     |
| O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....                                                                                       | 65  |
| <b>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</b>                                                                                                          |     |
| Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda<br>emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....            | 68  |
| <b>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</b>                                                                                                        |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                     | 72  |
| <b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....                                                       | 76  |
| <b>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</b>                                                                                                       |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning<br>lingvistik va lingvometodik talqini.....             | 81  |
| <b>Ismoilova Zarnigor raximjon qizi</b>                                                                                                       |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                     | 86  |
| <b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....                                                             | 90  |
| <b>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</b>                                                                                                           |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....                                    | 96  |
| <b>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</b>                                                                                                       |     |
| Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....                                           | 100 |
| <b>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</b>                                                                                                        |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....                                      | 105 |
| <b>Murodova Madina Karim qizi</b>                                                                                                             |     |
| Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....                                                                   | 108 |
| <b>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</b>                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda<br>Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish..... | 110 |
| <b>Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna</b>                                                                                                                               |     |
| O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....                                                                                | 115 |
| <b>Quronboyeva Mavluda Bahodirovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....                                                                                                                       | 120 |
| <b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>                                                                                                                                           |     |
| 6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....                                                                                      | 123 |
| <b>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....                                                                         | 128 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Kadirovich</b>                                                                                                                                         |     |
| Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda<br>motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....                                      | 132 |
| <b>F. Zaynabuddinov</b>                                                                                                                                                    |     |
| Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....                                                                                        | 135 |
| <b>Киреева Эльвина Фларитовна</b>                                                                                                                                          |     |

# XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA NEYROPEDAGOGIKA

**Sidiqova Yulduz Sobirovna**

Osiyo xalqaro universiteti  
Pedagogika va psixologiya kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS kabi baholash dasturlarining mazmuni va ahamiyatini tahlil qilingan, neyropedagogik yondashuvlar bilan ularning kesishuv nuqtalarini aniqlangan va o'quv jarayoniga neyropedagogik yondashuvlarni joriy etishning ahamiyato ochib berilgan.

So'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA, PIRLS kabi baholash dasturlari o'quvchilarning bilim darajasi va amaliy ko'nikmalari baholanmoqda. Ushbu baholash tizimlari ta'lim sifatini aniqlashda muhim mezonga aylanmoqda. Shu bilan birga, neyropedagogika – ya'ni miyadagi o'quv jarayonlarini o'rganuvchi fan – zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu ikki yo'nalishni integratsiyalash orqali o'quvchilarning individual salohiyatini rivojlantirish va baholashda yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi xalqaro baholash dasturlarining mazmuni va ahamiyatini tahlil qilish, neyropedagogik yondashuvlar bilan ularning kesishuv nuqtalarini aniqlash va o'quv jarayoniga ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro baholash, PISA, neyropedagogika, ta'lim sifati, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

**Abstract:** This article analyzes the content and significance of international assessment programs such as PISA and PIRLS, identifies their points of intersection with neuro-pedagogical approaches, and highlights the importance of integrating neuro-pedagogical methods into the learning process.

**Key words:** International assessment, PISA, neuro-pedagogy, education quality, student-centered approach.

**Аннотация:** В данной статье проанализировано содержание и значимость международных оценочных программ, таких как PISA и PIRLS, выявлены точки пересечения с нейропедагогическими подходами, а также раскрыта важность внедрения нейропедагогических методов в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** Международная оценка, PISA, нейропедагогика, качество образования, личностно-ориентированный подход.

## KIRISH

Neyropedagogika- bu pedagogika, kognitiv psixologiya va neyrobiologiya sohalarining integratsiyasi natijasida shakllangan ilmiy yo'nalish bo'lib, o'quv jarayonining miyadagi kognitiv jarayonlar bilan qanday bog'liqligini o'rganadi. J. Gayner fikriga ko'ra, "Neyropedagogika – bu inson miyasining kognitiv jarayonlari haqidagi bilimlardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlarini o'rganuvchi fan".<sup>[1]</sup>

Neyropedagogikaning asosiy yo'nalishlari:

- Diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash, tezkor tahlil, tanqidiy fikrlash, assosasiya shakllantirish mexanizmlarini o'rganish. Kognitiv jarayonlar, ya'ni diqqat, xotira, tafakkur va mulohaza yuritish mexanizmlarini o'rganish o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.
- O'quv jarayoniga individual yondashuv. Neyropedagogika va kognitiv psixologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ta'lim jarayonida individual yondashuv qo'llanilganda, o'quvchilarning o'qish samaradorligi oshishi, xotirasi mustahkamlanishi va motivatsiya darajasi ko'tarilishi mumkinligini ko'rsatadi.<sup>[2]</sup>
- O'quv jarayonida ijobiy emotsional muhitni ta'minlash. Ijobiy o'quv muhiti yaratish, multimodal ta'lim usullaridan foydalanish, geymifikatsiyani joriy etish va ijtimoiy o'rganish jarayonlarini kuchaytirish o'quvchilarda ta'limga bo'lgan qiziqishni mustahkamlaydi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada PISA, PIRLS va boshqa xalqaro dasturlar hujjatlari, zamonaviy neyropedagogik adabiyotlar, amaliy va nazariy manbalar tahlil qilindi. Metod sifatida: taqqoslash, tahlil, umumlashtirish va sistemalashtirish ishlatildi.

Xalqaro baholash tizimlari va neyropedagogikaning o'zaro aloqasini quyidagi jarayonlarda ko'rishimiz mumkin.

PISA yoki PIRLS kabi baholash dasturlari o'quvchining darajasini individual baholaydi. Neyropedagogika esa ushbu darajani miya rivojlanishi bilan bog'lab tahlil qiladi. Neyropedagogika metakognitiv yondashuvlar, ya'ni, shaxsning o'z bilimi va o'quv jarayonini boshqarish, bilish jarayonlarini kuzatib borish va refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa xalqaro testlarda natijalarning yuqori bo'lishiga olib keladi. O'quvchilarning samarali o'rganishi va rivojlanishi uchun eng qulay, maqsadga muvofiq va rag'batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish. Bu o'quv muhitini optimallashtirish bo'lib, neyropedagogik yondashadigan bo'lsak, miya faoliyatini hisobga olgan holatda o'quv muhiti o'zgartiriladi. Bu esa umumiy natijalarni oshiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nutq va tafakkurini rivojlantirish nafaqat milliy ta'lim standartlarining, balki xalqaro baholash tizimlarining ham asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda PISA (Programme for International Student Assessment) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning o'qish savodxonligi, nutqiy kompetensiyalari va tafakkur darajasini baholash uchun ishlatiladi. Mazkur baholash tizimlari ta'lim sifatini xalqaro miqyosda baholash va o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning talablari milliy ta'lim dasturlarida ham aks ettirilishi zarur. PISA – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan har uch yilda bir marta tashkil etiladigan xalqaro baholash dasturi bo'lib, 15 yoshli o'quvchilarning fan, matematika va o'qish savodxonligini baholashga qaratilgan. Unda asosiy e'tibor o'quvchilarning ma'lumotni anglash, tahlil qilish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini o'rganishga qaratiladi.

PISA doirasida o'quvchilardan nafaqat matnni o'qish va uni tushunish, balki uni tahlil qilish, undagi asosiy g'oyalarni ajratish, o'qilgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish va o'z nuqtai nazarini bayon qilish talab etiladi. Bu jarayonda nutq va tafakkur rivojlanishi o'quvchilarning matnlar bilan ishlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, PISA baholash tizimida matnlar to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlarni qabul qilishga emas, balki ularni tahlil qilish va mantiqiy bog'liqliklarni anglashga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilardan chuqur tafakkur qilish va to'g'ri nutqiy ifodaga ega bo'lishni talab qiladi. [3]

PISA talablari asosida nutq va tafakkur rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida:

- o'quv matnlarini tahlil qilish va tanqidiy yondashuvni shakllantirish – o'quvchilar matndagi asosiy fikrni ajratib, uning mazmunini o'z so'zlari bilan ifoda etishi lozim;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish – o'quvchilar ma'lumotlar asosida mantiqiy xulosalar chiqarishni o'rganishlari kerak;
- o'z nuqtai nazarini ifoda etish va himoya qilish – o'quvchilar argument keltirish va fikrlarini mantiqiy asoslash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

PIRLS – Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini baholash assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladigan baholash dasturi bo'lib, 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini va nutqiy kompetensiyalarini baholashga qaratilgan. Bu tizimda o'quvchilardan berilgan matnni to'g'ri tushunish, o'qilgan ma'lumotni yodda saqlash va uni boshqa kontekstlarda qo'llash qobiliyati talab etiladi[4]. PIRLS baholash tizimi asosan quyidagi mezonlarga e'tibor qaratadi:

- matnni tushunish va uni qayta ifoda etish – o'quvchi o'qigan matn mazmunini matndagi bog'liqliklarni tushunish
- tushunishi, undagi asosiy fikrlarni ajratishi va ularni qisqacha bayon qilishi zarur;
- o'quvchi matnda keltirilgan g'oyalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishi kerak;
- matnni shaxsiy tajriba bilan bog'lash – o'quvchi o'qigan ma'lumotlarni o'z tajribasi bilan taqqoslay olishi, ularga munosabat bildiray olishi kerak.

Natijada o'quvchilar PIRLS talablariga muvofiq, nutq va tafakkur rivojlanishi uchun ta'lim jarayonida:

- badiiy va ilmiy matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish



- o'quvchilar nafaqat real voqelikni aks ettiruvchi matnlar, balki badiiy va g'oyaviy kontentni tahlil qilishni ham o'rganishlari kerak;
- matnni qayta hikoya qilish va uning mazmunini tushuntirish – o'quvchilar o'z nutqi orqali o'qigan ma'lumotni qayta bayon qilish va tafakkur asosida uni qayta ishlash ko'nikmasini shakllantirishlari lozim;
- interaktiv bahs va muhokamalarni joriy etish – bahs va muloqot jarayonlari orqali o'quvchilar o'z fikrini ravon va asosli ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda qabul qilingan ta'lim standartlari PISA va PIRLS baholash tizimlariga moslashtirilgan holda rivojlantirilishi zarur. Chunki xalqaro baholash tizimlari asosan funksional savodxonlikni, ya'ni o'quvchilarning o'qilgan ma'lumotlarni real hayotda qo'llash qobiliyatini baholaydi. Shu bois ta'lim dasturlarida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rag'batlantirish, ularni mustaqil tahlil qilish va o'z fikrini erkin bayon qilishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda neyropedagogika nafaqat pedagogik-psixologik jarayonlarni tushunish, balki ularni baholash tizimlari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, o'quvchining nutq va tafakkurini rivojlantirishda miyadagi motivatsiya jarayonida dofamin deb ataladigan neurotransmitter muhim rol o'ynaydi. Dofamin miyadagi mukofot tizimi bilan bog'liq bo'lib, bilim olish jarayonida hayajon va zavq hissi uyg'otadi. Agar ta'lim jarayonida qiziqarli metodlar qo'llanilsa, o'quvchilar dofamin chiqarilishini his qilib, o'qishga bo'lgan qiziqishlari oshadi. Stress holatida miyaning amigdala qismi faoliyatni kuchaytiradi va bu kognitiv jarayonlarni susaytirib, motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Shuning uchun ta'lim jarayonida ijobiy emosional muhit yaratish muhimdir. O'quvchilarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularni xato qilishdan qo'rqmaslikka o'rgatish va maqtov vositalarini qo'llash motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Neyrobiologiya tadqiqotlari ko'rsatganidek, ta'lim jarayonida dofamin, oksitotsin va serotonin kabi neurotransmitterlar bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga ta'sir qiladi. <sup>[5]</sup> Demak, dars jarayonida emotsional ijobiy muhitni ta'minlash ham neyropedagogik yondashuvning ajralmas qismi bo'lib, xalqaro baholashlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun muhimdir.

Bundan tashqari, xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida mamlakat miqyosida ta'lim siyosatini shakllantirishda neyropedagogik tahlillar muhim rol o'ynaydi. Masalan, PISA natijalari ko'p hollarda o'qitish uslublarining yangilanishi zarurligini ko'rsatadi. Neyropedagogika bu o'zgarishlarni qanday amalga oshirish, ya'ni qanday usullar orqali o'quvchining miyaviy faolligini maksimal darajada ishga solish mumkinligini ko'rsatib beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

PISA va PIRLS talablari bilan bog'liq holda nutq va tafakkurni rivojlantirish – ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishning muhim shartidir. Bu baholash tizimlari o'quvchilarda ma'lumotni tahlil qilish, mantiqiy fikr yuritish va o'z nuqtai nazarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida PISA va PIRLS standartlarini inobatga olgan holda, nutq va tafakkurni uyg'un rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro baholash tizimlari o'quvchilarning real hayotda bilimni qo'llash darajasini o'lchasa, neyropedagogika bu ko'nikmalar qanday shakllanishini tushuntiradi. Ularning integratsiyasi orqali o'quv dasturlarini shaxsga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va samarali qilish mumkin. Shu sababli, o'qituvchilar va ta'lim siyosatida qatnashayotganlar neyropedagogik bilimlardan foydalangan holda baholash tizimlarini takomillashtirishlari lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Geuner J. Neuroscience and Education: A Review. – London: Cambridge University Press, 2019. – p.78.
2. Immordino-Yang M.H., Damasio A. We Feel, Therefore We Learn: The Relevance of Affective and Social Neuroscience to Education. – Mind, Brain, and Education, 2007. – p.8
3. OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. – Paris:
4. OECD Publishing, 2019. – p. 45.
5. Damasio A. The Feeling of What Happens: Body and Emotion in the Making of Consciousness. – New York: Harcourt, 1999. – p.142.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.